

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Iqtisodiyotda xizmatlar sohasi o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabilar tashkil etadi.


Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan
bozor xizmatlari
hajmi

Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan
bozor xizmatlari
hajmining o'sish
sur'atlari



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish
sur'atlari

Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamонавиј infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvarsentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 518,5 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 411,8 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,9 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayrboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi, mlrd. so'm




2020- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning sentabr oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 131,2 mlrd. so'mga o'sdi va 486,9 mlrd. so'mga yetdi.

Taqqoslash uchun:

o'tgan yilning shu davrida ularning hajmi 116,7 mlrd. so'mga o'sgan va 398,6 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2020- yilning III diskret choragi yakunlariga ko'ra, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1259,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning III diskret choragiga nisbatan (1152,5 mlrd. so'm) hajmi 106,8 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslash uchun:
2019 va 2018- yilning III diskret choraklar o'rtaсидаги farqi 216,4 mlrd. so'mni tashkil etган.



*Dastlabki ma'lumotlar*


Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорligи va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	3518,5	102,9
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	171,4	114,7
Moliyaviy xizmatlar	916,9	134,6
Transport xizmatlari	603,9	108,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	591,0	106,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	94,7	78,0
Savdo xizmatlari	1 067,6	91,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	86,0	89,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	124,0	90,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	56,2	89,0
Ijara xizmatlari	71,0	86,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	87,0	97,2
Shaxsiy xizmatlari	98,9	97,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	51,3	71,1
Boshqa xizmatlar	89,6	81,5

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi 30,3 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (26,1 %), transport xizmatlari (17,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (4,9 %) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning tarkibi (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)




Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'lmagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,5 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Shuningdek, nisbatan yuqori bo'lmagan ulush sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar - 1,6 %, ijara sohasidagi xizmatlar – 2,0 %, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hissasi 2,4 % ga to'g'ri keldi.

Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (34,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (14,7 %), shuningdek transport xizmatlari (8,0 %)da qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoxda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi**




Dastlabki ma'lumotlar

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi sezilarli darajada (28,9 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish xizmatlari (22,0 % ga), boshqa xizmatlari (18,5 % ga), ijara xizmatlari (13,1 % ga), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (11,0 % ga), shuningdek ko'chmas mult bilan bog'liq xizmatlar (10,5 % ga) da pasayish kuzatildi.

Transport sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining sezilarli darajada pasayishiga qaramay, xizmatlarning umumiyligi hajmida ularning ulushi ustun bo'lib qolmoqda – 17,2 %.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida yo'lovchilarni tashish katta ulushga ega.

Transport xizmatlarining tashish turlari bo'yicha tarkibi (2020-yil yanvar-sentabr oylarida)



2020- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 42,8 % ga yetdi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 57,2 % ni tashkil etdi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rinn tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'tasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida savdo xizmatlarining ulushi 30,3 % ni tashkil etib, bu 1 067,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Dastlabki ma'lumotlar

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiylashtirilgan savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismiga, aniqrog'i 83,8 % iga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 11,3 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiylashtirilgan hajmidagi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi 916,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning hajmi 626,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



Ularning umumiylashtirilgan hajmidagi ulushi 26,1 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi 20,1 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini 290,5 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.



Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 34,6 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning o'sish sur'ati 190,0 % ga yetgan.

Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik

hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.


Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning bo'linmalari faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)**


Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 93,8 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 4,3 % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiyligi moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 1,9 % ni tashkil etadi.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari



2020- yilning yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 171,4 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 114,7 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmdagi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi



Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlash-tirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekom-munikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va bosh-qalar) egallab, 99,4 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar – 0,1 %, boshqa aloqa xizmatlari – 0,1 %, axborot sohasidagi xizmatlar – 0,1 %, shuningdek, noshirlik xizmatlari – 0,3 % dan tashkil etdi.


Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'limga bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

Ta'limga sohasidagi xizmatlar

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ta'limga sohasidagi xizmatlar hajmi 124,0 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 3,5 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 90,8 % ni tashkil etdi.


Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

**Hududlar kesimida ta'lif sohasidagi
xizmatlarning hajmi, mln. so'm
(2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)**



Ta'lif sohasidagi xizmatlarning yuqori hajmi Sh.Rashidov (5841,6 mln. so'm), Zomin (4150,5 mln. so'm), G'allaorol (3259,4 mln. so'm) va Zarbdor (2826,1 mln. so'm) viloyatlari, hamda Jizzax shahrida (95 047,8 mln. so'm) qayd etildi.

Nisbatan past ko'rsatkichlar Yangiobod (431,4 mln. so'm), Zafarobod (1097,3 mln. so'm), Arnasoʻy (1292,3 mln. so'm), Forish (1528,2 mln. so'm) va Mirzacho'l (1551,6 mln. so'm) viloyatlarida belgilandi.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 78,0 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 94,7 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi atigi 2,7 % ni tashkil etdi.



2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan turar joy va umumiyligi ovqatlanish xizmatlari hajmi 13,2 mlrd. so'mga kamaydi.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiylajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 88,8 % bilan ustunlik qiladi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 11,2 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)


2020- yilning yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 56,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Xizmatlar umumiylajmi hajmida ularning ulushi 1,6 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 89,0 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)



Xizmatlarning umumiylajmi hajmida Jizzax shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 42,0 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa viloyatlardan ko'ra yuqoriqoq ekanligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, eng katta ulush Sh.Rashidov (13,8 %), Zomin (8,6 %), G'allaorol (6,6 %) va Baxmal (6,2 %) tumanlarida qayd etildi.


Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Yangiobod (0,8 %), Zafarobod, Arnasoy (2,0 %), Mirzacho'l (3,2 %), Zarbdor (3,5 %) tumanlarida kuzatildi.

Ma'lumot uchun: 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida Jizzax shahrining ulushi 55,8 % ni tashkil etgan.

Yangiobod viloyatining ulushi esa eng past ekanligi – 0,8 % kuzatilgan.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Ushbu davr mobaynida nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Do'stlik (114,3 %), Mirzacho'l (107,2 %), Sh.Rashidov (106,7 %), Paxtakor (102,5 %), Zomin (101,9 %), Zafarobod (101,5 %) tumanlarida va Jizzax shahrida (103,1 %) qayd etildi.



Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



Ko'rilibotgan davrda, resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Jizzax shahri ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 176,0 mlrd. so'mga oshdi va 1 477,9 mlrd. so'mga yetdi.

**Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	
		2019- y.	2018- y.
Jizzax viloyati	3 518,5	102,9	116,2
Jizzax sh.	1477,9	103,1	114,9
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	70,8	100,0	111,9
Baxmal	217,7	100,1	111,6
G'allaorol	233,2	98,0	116,2
Sh.Rashidov	485,9	106,7	112,1
Do'stlik	138,6	114,3	112,8
Zomin	302,9	101,9	111,1
Zarbdor	121,2	98,2	109,4
Mirzacho'l	70,5	107,2	111,1
Zafarobod	113,4	101,5	121,1
Paxtakor	129,9	102,5	108,4
Forish	128,3	98,3	110,0
Yangiobod	28,2	91,8	114,0

* hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda



Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Sh.Rashidov (485,9 mlrd. so'm), Zomin (302,9 mlrd. so'm), G'allaorol (233,2 mlrd. so'm) va Baxmal (217,7 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Ma'lumki, zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqueqda.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 526,6 ming so'mga yetdi.


O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,7 % ni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar
hajmi – 2 526,6 ming so'm**

O'sish sur'ati, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan – 100,7 %

Hajmning o'sishi, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan – 248,0 ming so'mga

**Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'm
(2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)**



Ushbu xizmatlar hajmi ko'rsatkichi hududlar o'rtaida Jizzax shahrida 8 270,6 ming so'mdan Yangiobod tumanida 998,0 ming so'mgacha oralig'ida bo'ladi.

Ushbu mintaqada aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ko'rsatkichi nisbatan pastligi bu hududda aholi sonining yuqori ko'rsatkichlariga bog'liqligidir.

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорлиги ва samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.


Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

Dastlabki ma'lumotlar

**2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra,
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



**2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi – 57,4 %, sanoat – 16,5 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi – 16,3 % ga yetdi.

Qurilishda 9,8 % ga to'g'ri keldi.

**2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (40,2 %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 10,7 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 5,3 % ga yetdi.



Sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 2,3 % ga teng bo'ldi.

Axborot va aloqa shuningdek, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 1,8 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2019- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 9 888 korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari – 35,5 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari – 10,9 %, tashish va saqlash – 5,8 %, sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlari ko'rsatish – 2,5 %, axborot va aloqa - 1,8 %, hamda boshqa turdag'i xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 43,5 % ni tashkil etgan.

2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining ko'payishi va o'sishi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



O'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1709 ko'paydi.

Taqqoslash uchun: 2019- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, ularning soni 1479 ko'paygan.

Dastlabki ma'lumotlar

Kuzatilayotgan davrning o'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasidagi yuqori o'sishi – 33,0 % ekanligi aniqlandi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1 156 ko'paydi va 4664 yetdi.



Shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi – 15,0 %. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 162 ko'paydi va 1 239 tashkil etdi.

**2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi 72,6 % ga to'g'ri keladi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, ularning ulushi 68,6 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.

**2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 1 629 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 8 415 tani tashkil etdi va o'sishi esa 24,0 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 49,6 % ga yetdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxona va tashkilotlar sonining ulushi 49,5 % ekvivalentida qayd etildi.



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ijobjiy natijalari xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal etishda uning rolini oshirish bilan uzviy bog'liqdir.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Tel.: 72-221-51-27